BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK QADRIYATLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna
Guliston davlat pedogogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish sharoitida o‘quvchilarda ekologik qadriyatlar tizimini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ekologik tarbiyaning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati, o‘quvchilarning ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik qadriyatlarni shakllantirish orqali o‘quvchilarda mas’uliyat, tabiatga ongli munosabat va ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit So‘zlar: Barqaror rivojlanish, ekologik qadriyatlar, ekologik madaniyat, o‘quvchilar tarbiyasi, ekologik ong, pedagogik yondashuv, ijtimoiy-ma’naviy rivojlanish.

KIRISH. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda asosiy vositalardan biri – bu ekologik tafakkurni rivojlantirishdir. Ekologik tafakkur insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik mas’uliyatni his qilish qobiliyatidir.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda quyidagi choratadbirlar amalga oshirilmoqda:

• Ta’lim tizimida ekologik savodxonlik – maktab va oliy ta’lim dasturlariga ekologik bilimlarni kiritish, “Ekologik madaniyat” kurslarini tashkil etish.

• Ekologik targ‘ibot – yoshlar orasida “Yashil makon” umumxalq loyihasi, ekologik festivallar, chiqindilarni saralash tashabbuslari orqali ongni shakllantirish.

• Amaliy loyihalar – suvni tejash texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari (quyosh panellari, shamol elektr stansiyalari) ni kengaytirish.

• Innovatsion yondashuvlar – “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, raqamlashtirish orqali resurslardan tejamkor foydalanish, ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha barcha ta’lim tizimlari faoliyat olib bormoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston tajribasida ekologik tafakkurni rivojlantirish yo‘nalishlarida ta’lim dasturlarini integratsiya qilish – barcha fanlarda ekologik tamoyillarni yoritish masalan, Plastmassaning chidamliligi → chiqindilar muammosini kundalik hayotda foydalaniladigan predmetni loyihalash asosida chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash; Ichimlik suvlari sifatini tushuntirish → dengiz va ko‘llardagi sho‘rlanish muammosini tajriba orqali izohlash, toza suv resurslarini qadrlash, suvni tejash; Havo va suvdagi ifloslanishning butun dunyoga tarqalishini tajriba orqali ko‘rsatish hamda iqlim o‘zgarishi va global ekologik muammolarni tushuntirish; Yer resurslari cheklanganligini (masalan, qimmatbaho metallar, nodir elementlar) diagrammalar orqali, elementlarning tabiatda notekis taqsimlangani sababli xalqaro hamkorlik zarur ekanligini ko‘rsatish, metallarni qazib olishning ekologik oqibatlari va qayta ishlashning global mas’uliyati, masalan, temir, alyuminiy va mis qazib olish jarayonida chiqindilar va ifloslanish muammosini tahlil qilish; Barqaror energiya ishlab chiqarish va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash → maishiy kimyo vositalaridan xavfsiz foydalanishni o‘rgatish, kislotali yomg‘ir va uning ekologik oqibatlarini muhokama qilish, mustahkam materiallarning barqaror infratuzilma yaratishdagi ahamiyatini muhokama qilish hamda kundalik hayotdagi oddiy qarorlarning (yoqilg‘i tanlash, chiqindi yoqish) global ta’sirini anglash ko‘nikmalarini o‘quv dasturlariga kiritish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgan Yangi O‘zbekistonda bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2025 yilning “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi “yashil” texnologiyalarni keng joriy etish, suv resurslarini tejash, ko‘kalamzor hududlarni kengaytirish, Orol muammosining salbiy oqibatlarini kamaytirish, chiqindilar muammosini bartaraf etish hamda aholining salomatligini mustahkamlashga qaratilgan amaliy ishlarning muhim qismi hisoblanadi[1]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi ekologik ta’limni rivojlantirishga oid qarori[2] hamda Prezidentmizning 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni[3] ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning muhim huquqiy asosini tashkil etadi.

Barqaror rivojlanish – bu kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga putur yetkazmasdan, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan rivojlanishdir. Bu ta’rif 1987-yilda tuzilgan Bruntlend komissiyasining hisobotida keltirilgan bo‘lib, u atrof-muhit, ijtimoiy soha va iqtisodiyotni uyg‘unlashtirish g‘oyasiga asoslanadi. Bu uchta soha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, farovon jamiyat o‘z fuqarolarini oziq-ovqat, resurslar, xavfsiz ichimlik suvi va toza havo bilan ta’minlash uchun sog‘lom atrof-muhitga tayanadi.

2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan Prezident qarorida har yili 200 million tup ko‘chat ekish, ularning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil hududlarni 30 foizdan ortiq darajada kengaytirish; o‘rmon fondi zaxiralarini 90 million kub metrdan ziyod miqdorga yetkazish; hosil bo‘layotgan qattiq maishiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 27.05.2019 yildagi 434-son Qarori. https://lex.uz

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 27.05.2019 yildagi 434-son Qarori. https://lex.uz

[3] O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo‘lgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son Farmon, 30.10.2019. https://lex.uz

chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichini 65 foizdan yuqori darajaga olib chiqish kabi vazifalar belgilangan[1]. Bu esa ekologik tarbiya bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uyg‘unlikka bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Ekologik tarbiya bizda azal-azaldan milliy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Bugungi global iqlimiy o‘zgarishlar sharoitida ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, kishilarda, ayniqsa yoshlarda atrof-muhit muhofazasiga doir faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik xatarlarning salbiy oqibatlarini yumshatish va oldini olish borasida aniq va zarur ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish, yo‘riqnomalar yaratish, ilmiy axborot va statistik ma’lumotlardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Shu jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi hamda axborot vositalaridan keng foydalanish ekologik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa insoniy sa’y-harakatlarning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlab, nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Natijada sog‘lom kelajak va barqaror taraqqiyotga erishish imkoniyati ortadi.

Barqarorlik esa bu uch omilni muvozanatda ushlab turgan holda rivojlanishga va hayot sifatini yaxshilashga intiluvchi kelajak haqidagi yangi qarashdir. Ekologik muhitni yaxshilashni boshqalardan kutish, masalaga yuzaki qarash yoki qisqa muddatli tashabbuslar bilan cheklanib qolish atrof-muhitni asrash uchun yetarli emas. Tabiatning sofligini, havoning tozaligini va suv resurslarining musaffoligini ta’minlash uchun ilmiy asosga ega, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hamda tizimli yondashuvlar zarur. Shu sababli ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ongida ekologik madaniyat, ma’naviy mas’uliyat, burch va vijdon hissi shakllanmas ekan, kutilgan natijalarga erishish qiyin. Obrazli ifoda etganda, bugungi kunda ona tabiat inson e’tiboriga har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda.

XULOSA. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda ekologiya, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy chora-tadbirlar nafaqat bugungi kun ehtiyojlarini qondirish, balki kelajak avlod uchun sog‘lom, toza va xavfsiz ekologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2019–2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ekologiya va barqaror rivojlanishga oid qarorlari. – Toshkent, 2020–2024.

4. “Yashil makon” umumxalq loyihasi doirasidagi rasmiy materiallar va hisobotlar. – Toshkent, 2021–2024.

5. Brundtland G. H. “Our Common Future”. – Oxford: Oxford University Press, 1987.

6. United Nations. “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development”. – New York, 2015.

7. Odum E. P. “Fundamentals of Ecology”. – Philadelphia: Saunders, 1971.

8. Miller G. T., Spoolman S. “Environmental Science”. – Cengage Learning, 2016.

[1] https://president.uz/uz/lists/view/5805